

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

RASULOVA MUNOJAT AKMALJONOVNA

**DRAMATIK DISKURSDA METAFORA VA UNING
LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI
(o‘zbek va ingliz tillaridagi materiallar asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philology (PhD) on
philological sciences**

Rasulova Munajat Akmaljonovna

Dramatik diskursda metafora va uning lingvokulturologik aspekti (o‘zbek va ingliz tillaridagi materiallar asosida)..... 3

Расулова Муножат Акмалжоновна

Метафора в драматическом дискурсе и ее лингвокультурологический аспект (на основе материалов на узбекском и английском языках) 25

Rasulova Munajat Akmaljonovna

Metaphor in dramatic discourse and its linguocultural aspect (based on the materials of the Uzbek and English languages) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

RASULOVA MUNOJAT AKMALJONOVNA

**DRAMATIK DISKURSDA METAFORA VA UNING
LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI
(o‘zbek va ingliz tillaridagi materiallar asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2975 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda “ZiyoNet” axborot ta’lim portali (www. ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raupova Laylo Raximovna

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Akbarova Zuxro Akmaljonovna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Asronova Mohigul Musaboyevna

filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76; faks: 0(374) 223 42 76 e-mail: asifl_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d. professor

A.Dj.Atabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD)

M.I.Umarxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining taraqqiyoti natijasida ilm-fanga yangicha yondashuvlarni joriy etish zarurati paydo bo‘ladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri tilning muayyan qatlamida uchraydigan diskurslarning lisoniy, ijtimoiy, madaniy, antropologik, semiotik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, adabiyot hamda ijtimoiy-maishiy sohalarda uchraydigan diskursning qo‘llanish doirasini tadqiq qilish keng o‘rganilayotgan muammolardandir. Dramatik diskurs muayyan xalq mentaliteti, etnik xususiyatini til orqali ifodalab beruvchi murakkab jarayon. Unda shaxsning fikriy mundarijasi, uning nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligi, pragmatik va sotsiopragmatik xoslanishi real ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Dunyo tilshunosligida metaforalogiyaning paydo bo‘lishi va alohida soha sifatida shakllanishini antropotsentrik aspektda tadqiq etish, antik va o‘rta asr tilshunosligidan farqli ravishda metaforalarning lison va tafakkurga qaratilgan lingvokognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik tabiatini tushuntirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Metaforadagi nominativ vazifani antropotsentrik yondashuv tamoyillari asosida tekshirish muammosi esa hanuz o‘z yechimini topganicha yo‘q. Sohaning rivoji bilan metaforaning inson kognitiv strukturasi hamda til sistemasiga daxldorligini neyrolingvistik kesimda asoslash, kognitiv va konseptual metaforalarni o‘zaro farqlash, metaforik nominatsiya nazariyasining taraqqiyotini belgilash yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda bugungi kunda o‘zbek tilining nufuzi va mavqeyini yanada oshirish chora-tadbirlari dunyoning rivojlangan tillari tajribasidan kelib chiqib belgilanmoqda. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda ilm-fanning rivojiga, xususan, qardosh bo‘lmagan tillarning chog‘ishtirma tadqiqiga katta e‘tibor qaratildi. Binobarin, “Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko‘lamli ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi”¹. Bularning isbotini ta‘minlash esa tilning turli sathlarida munozarali bo‘lgan masalalarni tadqiq etishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 35 – 36.

Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda diskursni turli aspektlarda o‘rganish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Rus tilshunosligida badiiy matnlarda diskursning voqelanishi bo‘yicha E.Y.Bogdanov², V.Y.Filippova³ tadqiqotlar olib borgan. Xususiylar diskurslarning turli aspektlarda yoritilishi E.A.Kazimova⁴, E.V.Solovyanova⁵ tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Diskursning kognitiv va tipologik aspektdagi mohiyati masalasi V.E.Chernyavskaya tomonidan yoritilgan⁶.

Xorijlik olimlardan J. Goguyen⁷, L. Gardaphé, Vyening Xu⁸, Kiling, K.Kara va Skott T. Pollard⁹, Kessler, Brad, Leyns, Vendi va Romona Peryez¹⁰ va boshqalar «food» («ovqat») konsepti misolida diskursning badiiy adabiyotda uchrashini tadqiq qilgan. Dj. Lakoff¹¹, Y. Ginzburg¹², I.R. Galperin¹³, T.A. van Deuk¹⁴, B. Russell, Dj. Ostin¹⁵, Dj. Syori¹⁶, C.U. Morris¹⁷, C. Pirc¹⁸, G.P. Dje¹⁹lar muammo bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. O‘zbek olimlaridan Sh.Safarov diskursiv tahlil strukturasi²⁰, S.M.Mo‘minov “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-

² Богданова Е.Ю. Лексические приметы дискурса власти и дискурса личности в произведениях. С.Довлатова. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2000.

³ Филиппова Ю.А. “Дискурсы сознания” и “дискурсы о сознании” в “новой волне” литературы постмодернизма: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2016.

⁴ Казимова Э.А. Персональность в дискурсе побуждения: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2016.

⁵ Соловянова Е.В. Агональность в академическом дискурсе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2020.

⁶ Чернявская В.Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: С.Петербург. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С. 14.

⁷ Goguen J. (2005) “What is a Concept?” *Conceptual Structures: Common Semantics for Sharing Knowledge* // Lecture Notes in Computer Science. Vol. 3596. – pp. 52–77.

⁸ Gardaphé, Fred L. and Wenying Xu. “Introduction: Food in Multi-Ethnic Literatures.” MELUS 32.4 (2007): 5-10. Web. 11 Jan. 2011.

⁹ Keeling, Kara K. and Scott T. Pollard. “Introduction: Food in Children’s Literature.” *Critical Approaches to Food in Children’s Literature*. Ed. Kara K. Keeling and Scott T. Pollard. - New York: Routledge, 2009.

¹⁰ Kessler, Brad. “One Reader’s Digest: Toward a Gastronomic Theory of Literature.” *The Kenyon Review* 27.2 (2005): 148-165. Web. 11 Jan. 2011, Leynse, Wendy and Romona Pérez. “Food as Metaphor.” *Encyclopedia of Food and Culture*. Gale, 2003. N. pag. Answers.com. Web. 8 Jan. 2011.

¹¹ Lakoff G. *Women, Fire, and Dangerous Things*. University of Chicago Press. – Chicago. 1987. – P. 632.

¹² Гинзбург Е. Преобразования словообразовательных гнезд. I. // Проблемы структурной лингвистики 1979. – М.: Наука, 1981. – С. 32 - 54.

¹³ Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. Монография. – М.: Наука, 1981. – 140 с.

¹⁴ Ван Дейк, Тён. Язык, познание, коммуникация. Б.: БГК им. И. А. Бодуэна де Куртенэ, 2000. – 308 с.

¹⁵ Остин Дж. Л. Чужое сознание. – В кн.: Философия, логика, язык. – М.: 1987; англ. *Other Minds*, 1953.

¹⁶ Сёрл Дж. Р. Что такое речевой акт? Косвенные речевые акты; Классификация речевых актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. –М., 1986.

¹⁷ Моррис Ч.У. Значение и означивание // Семантика. – М.,1984. – С. 118 – 132.

¹⁸ Пирс Ч.С. Избранные философские произведения. – М.: Логос, 2000. – 412 с.

¹⁹ James Paul Gee. *An introduction to discourse analysis. Theory and practice*. – Routledge, 2005. – P. 209.

²⁰ Sh. Safarov. *Pragmalingvistika*. – Toshkent, 2008. – В. 231 – 250.

lisoniy xususiyatlari”²¹, M.E.Umarxodjeyev²², N.I.Xursanov²³ singari tilshunoslar o‘zbek tilshunosligida xususiy diskurslarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z tadqiqotlarida maqola, ilmiy tadqiqot, monografiya ko‘lamida tadqiq etgan. Ilmiy manbalarda diskurs tahlili tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida antropotsentrik tamoyillar asosida keng tadqiq qilinmoqda. Jumladan, M.Saidxonov noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi²⁴, shuningdek, L.R.Raupova dialogik diskursda polipredikativ birliklar, G.K.Odilova glyuttonik diskurs tadqiqi bo‘yicha²⁵, M.Hakimov, A.B.Pardayev, D.Rustamov²⁶, kabi olimlar pragmatik tilshunoslikda diskurs va uning tutgan o‘rni masalalarini o‘rgangan. Metafora va uning tahliliga aloqador tadqiqotlar xorij²⁷, rus²⁸ va o‘zbek tilshunosligida mavjud²⁹. Biroq o‘rganilayotgan mavzu dramatik aspektida struktur-semantik, sotsiopragmatik va lingvokulturologik asosda qiyosiy tekshirish obyekti bo‘lgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Til, jamiyat va shaxs munosabatlari muammosi tadqiqi” mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi dramatik diskursdagi metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlarini va chog‘ishtirilayotgan tillardagi metaforizatsiya hodisasining umumiy hamda farqli jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dramatik diskursning talqini, uning o‘rganilayotgan muammoga tegishli qirralarini oydinlashtirish va uning tilshunoslikdagi mohiyatini asoslash;

²¹ Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – T., 2000. – B. 24.

²² Umarxodjeyev M.E. “Qizil kitob”ga tushmagan tuyg‘ular: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 114.

²³ Xursanov N.I. Dramatik diskursda verbal va noverbal komponentlar munosabati (o‘zbek va ingliz tillaridagi asarlar misolida): Filol. fanlari b-cha fals. d-ri ...diss. – Andijon, 2022. – 147-b.

²⁴ Saidxonov M.M. Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanlari nomz. ...diss. – Toshkent. 1993. – B. 161.

²⁵ Raupova L.R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fanlari d-ri ...diss. – Toshkent, 2012. – 220-b.; Odilova G.K. Glyuttonik diskurs asoslari // Mumtoz So‘z. –Toshkent, 2020. – B. 5 – 10.

²⁶ Rustamov D.A. Leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy aspekti: Fil.fan. PhD diss. – Farg‘ona, 2018. -128 b.;

²⁷ Beardsley M. The Metaphorical Twist // Philosophy and Phenomenological Research, Vol. 22. -London, 1962. Black M. Models and Metaphor. Studies in Language and Philosophy. -Ithaca London, 1962, P. 25-47. Davidson D. What Metaphors Mean//Pragmatics. Oxford, 1991. P.495-506. Hayman R. The Death and Life of Sylvia Plath, New York, 1991. Kittay E.F. Metaphor: Its Cognitive Force and Linguistic Structure. Oxford, 1987. Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor I I Metaphor and Thought. 2nd ed. / edited, by A. Ortony/. Cambridge, 1993. P. 202-251. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, London, 1980. Lakoff G., Turner M. More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago, 1989.

²⁸ Алексеев К. И. Метафора в научном дискурсе // Психологические исследования дискурса. М., 2002. - С. 40-50. Алексеев К. И. Эскиз теории метафоры // Языковое сознание: формирование и функционирование. М., 1998. - С. 68-76. Арутюнова Н. Д. Метафора // БЭС. Языкознание. М., 1998. Банин В.А. Субстантивная метафора в процессе коммуникации (на материале современного английского языка. Дис.канд. филол. наук. М., 1995.- 274 с.

²⁹ Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз....дис... -Т.,2000.-Б.33. Rustamova D. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari: Fil.fan. PhD diss. –T., 2018. –145 b.;

antropotsentrik paradigmda diskurs va uning semantik-struktur xususiyatlarini tadqiq qilish;

ingliz va o'zbek tillarida metaforalarning leksik-semantik va ijtimoiy xoslanish omillari mohiyatini dramatik diskursdagi matnlar misolida qiyoslash;

ingliz va o'zbek dramatik diskursda gender xoslangan metaforalarning lingvokulturologik tafovutlarini aniqlash;

o'zbek va ingliz tilidagi dramalarda metaforalarning pragmatik xususiyatlarini tavsiflash va semantik farqlarini aniqlash;

Tadqiqotning obykti o'zbek va ingliz tilidagi metafora, dramatik diskursiv jarayon hamda diskursiv sistema tadqiqotning o'rganish manbayidir.

Tadqiqotning predmeti dramatik diskursda metaforizatsiyaning sotsial xoslanish xususiyatlari, uning voqelanishiga pragmatik, lingvokulturologik omillarning ta'siri va diskursiv talqinini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy tahlili, tavsiflash tahlili, system tahlili, kontestual tahlili, differensial-semantik tahlili, distributiv tahlili usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi birinchi navbatda, tanlangan mavzuning dolzarbligi va ushbu mavzu tadqiqiga zamonaviy tahlil usullari nuqtai nazaridan yondashilayotganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda:

dramatik diskursdagi metaforalarning ikki tildagi o'zaro munosabati hamda ingliz va o'zbek tillaridagi dramalarda kommunikativ-pragmatik xoslangan metaforalarning gender xoslik belgilarini hisobga olgan holda feminin va milliy-mental, diskursiv, sotsial xoslangan kabi lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan;

o'zbek dramalari Sh.Boshbekovning "Temir xotin", S.Ahmadning "Kelinlar qo'zg'aloni" hamda ingliz dramalari W.Sheksperning "King Lear", "King Henry VIII" dramalaridagi metaforalarning ichki guruhlariga bo'linishi, ularning muayyan jamiyat qatlami vakillariga taalluqli sotsial mental va sintaktik-stilistik kabi pragmatik xususiyatlari asoslab berilgan;

metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari dramatik asarlar matnida grammatik vositalarning metafora hosil qilish darajasi, yangi turdagi metaforalarning hosil bo'lishi, metaforalar fikr-tuyg'u ifodalashda jozibadorlikni ta'minlashi hamda drama matnning asosiy qismiga aloqadorligiga ko'ra umumetnik va individual etnik metaforalar va ularning dramatik diskursda mavjud bo'lishi dalillangan;

o'zbek va ingliz tillaridagi dramatik diskursda voqelangan metaforalar diskursning presuppozisiya, implikatsiya singari elementlarining yuzaga chiqishida faol ishtirok etishi, ularda tasvir obekti axborot tashish, ekspressivlikni oshirish omillari ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek va ingliz tillaridagi dramatik diskursda metaforalar tasniflandi va ularni turli mavzular doirasida qo'llash imkoniyati mavjudligi statistik nuqtayi nazardan asoslandi;

metaforalar tasnifida sotsial, gender metaforalar hosil qilinishining lisoniy va nolisoniy omillari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyaning ilmiy bazasi, tadqiqot metodologiyasi, metodikasi va metodlari uyg'unligi, ko'rilayotgan soha bo'yicha qo'yilayotgan muammoning dolzarbligi, ishda yangi va muhim vazifalar hal etilgani, faktik materiallar talqinining nazariy asosli ekani, tadqiqotda himoyaga olib chiqilayotgan holatlar va xulosalarning yangiligi, olingan natijalarning asosliligi va ishonchliligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning xulosa va natijalari leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturologiya, o'zbek tili, tarjimashunoslik kabi fanlar dramatik diskursining lingvokulturologik tasnifi, qiyosi, ularning tarjimasini bilan bog'liq mavzular talqini va ta'limini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim tizimida lingvokulturologiya, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya nazariyasi fanlaridan maxsus kurs o'tishda, shuningdek, ushbu fanlar bo'yicha darslik, qo'llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning xulosa va materiallaridan ingliz, rus va o'zbek tillarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda, kurs va bitiruv-malakaviy ishlari hamda o'quv qo'llanma va magistrlik dissertatsiyasini yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

“Dramatik diskursda metafora va uning lingvokulturologik aspekti (o'zbek va ingliz tillaridagi materiallar asosida)” mavzusidagi dissertatsiyaning ilmiy natijalaridan:

o'zbek dramalari Sh.Boshbekovning “Temir xotin”, S.Ahmadning “Kelinlar qo'zg'aloni” hamda ingliz dramalari W.Sheksperning “King Lear”, “King Henry VIII” dramalaridagi metaforalarning ichki guruhlariga bo'linishi, ularning muayyan jamiyat qatlami vakillariga taalluqli sotsial mental va sintaktik-stilistik kabi pragmatik xususiyatlariga doir ilmiy xulosalaridan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020-2023-yillarga mo'ljallangan AM-FZ-201908172 raqamli “O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 7-iyuldagi 01/10-1331-son ma'lumotnomasi). Natijada dramatik diskursdagi metaforalarning ikki tildagi o'zaro munosabati hamda ularning tarjimasiga doir izoh hamda talqinlar takomillashuviga hissa qo'shgan;

dramatik diskursdagi metaforalarning ikki tildagi o'zaro munosabati hamda ingliz va o'zbek tillaridagi dramalarda kommunikativ-pragmatik xoslangan metaforalarning gender xoslik belgilarini hisobga olgan holda feminin va milliy-mental, diskursiv, sotsial xoslangan kabi lingvokulturologik xususiyatlariga oid ilmiy xulosalaridan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021–2023-yillarga mo'ljallangan PZ-202004165 raqamli “Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma va og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihaning bajarilishida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 7-iyuldagi 01/10-2330-son ma'lumotnomasi). Natijada dramatik diskursdagi metaforalarning ikki tildagi o'zaro munosabati hamda ularning tarjimasiga doir izoh hamda talqinlar takomillashgan;

metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari dramatik asarlar matnida grammatik vositalarning metafora hosil qilish darajasi, yangi turdagi metaforalarning hosil bo'lishi, metaforalar fikr-tuyg'u ifodalashda jozibadorlikni ta'minlashi hamda drama matnning asosiy qismiga aloqadorligiga ko'ra umumiy va individual etnik metaforalar va ularning dramatik diskursda mavjud bo'lishi singari ilmiy qarashlar hamda xulosalardan O'zbekiston teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanali ijodkorlari tomonidan 2022-2023-yillarda e'fira uzatilgan "Minbar", "Adabiyot gulshani" ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasi 2023-yil 7-avgustdagi 01-15-850-son ma'lumotnomasi). Natijada bugungi tilshunoslik ijtimoiy, ma'naviy jihatdan jamiyatda erishilgan barcha muvaffaqiyatlar zamirida dramatik metaforaning tadqiqi orqali muayyan til egalariga xos tafakkur, ma'naviyat va madaniyat ham aks etishiga alohida e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida ko'rsatuvlar davomida taqdim etilgan materiallar e'fira uzatilgan eshittirishlarni tayyorlashda va ularning mazmun-mohiyatini boyitishda manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi "**Antroposentrik yo'nalishda dramatik diskurs ilmiy tadqiq obyekti sifatida**" deb nomlangan. Ushbu qism antroposentrik tilshunoslikda diskurs va uning turlari, dramatik diskurs va uning pragmatik xususiyatlari, dramatik diskursning semantik va struktur xususiyatlari masalalariga bag'ishlangan. Antroposentrik ilmiy paradigma tilni o'rganishda yangi vazifalarni qo'ydi. Bu esa uni tavsiflashning yangi usullarini, uning birliklari, kategoriyalari, qoidalarini tahlil qilishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Maslova antroposentrizm g'oyasi xususida quyidagi mulohazalarini bildiradi: "Tilning antroposentrikligi g'oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosiy g'oyasidir. Bizning davrimizda lingvistik tahlilning maqsadini endi til tizimining turli xususiyatlarini aniqlash deb hisoblash mumkin emas. Endi tilni o'rganish uning mavjudlik usuli – shaxssiz mumkin emas. Bu esa antroposentrizmdir".

Diskurs inson nutqi, nutqqacha va undan keyingi vaziyat, kommunikativ maqsad va uni yuzaga chiqaruvchi omillarni tahlil etar ekan, bunda inson omili birlamchi rol o'ynaydi. Bu esa antroposentrik yondashuv asosida inson kognitiv faoliyatini tadqiq qilish zarurati borligini ko'rsatadi. Xalqaro diskurs so'zi fransuz tilidan olingan.

Dunyo olimlarining ushbu mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, diskurs (va matn) turli yo'llar orqali tasniflanishi mumkin:

- 1) axborot uzatish kanali orqali;
- 2) axborot tashuvchining turlari bo'yicha;
- 3) janr xususiyatlariga ko'ra;
- 4) semantik mazmuniga ko'ra;
- 5) aloqa sohasi va muhiti bo'yicha;
- 6) ifodalash usuliga ko'ra;
- 7) sotsiolingvistik yondashuvga ko'ra;
- 8) pragmatik yondashuvga ko'ra;
- 9) tematik mezon bo'yicha;
- 10) mavzu uslubi (nutq portreti)ga ko'ra;
- 11) milliy lingvomadaniy parametriga ko'ra;
- 12) dunyoni ko'rish va voqelikni tartibga solish uslubiga ko'ra;
- 13) yaratilish xususiyatiga ko'ra;
- 14) nutq aktining tuzilishiga ko'ra;
- 15) ifodalangan niyat nuqtayi nazaridan;
- 16) sotsiolingvistik prinsipga ko'ra;
- 17) kommunikativ ohang jihatdan;
- 18) og'zaki muloqotning aspektlari bo'yicha: muqaddas, utilitar, badiiy, ovozli ommaviy aloqadagi matnlar;
- 19) vazifasiga ko'ra;
- 20) psixologik mezonlarga ko'ra.

Dramatik diskursda mikro va ijtimoiy presuppozitsiya faol ishtirok etadi. Presuppozitsiya, asosan, qahramonlar nutqida faol qo'llanadi. Presuppozitsiyaning mohiyatini izohlash maqsadida ayrim o'rinlarda remarkalar orqali muallif aralashuvini kuzatish mumkin:

R a h i m a. Haliyam chiroyli. Qosh-ko'zlari yonib turadi. Bu suratning olinganiga kamida ellik yil bo'lgan (Said Ahmad Kuyov. 2-sahna).

Ajratib ko'rsatilgan so'z orqali presuppozitsiya yuzaga chiqqanini kuzatish mumkin. Ya'ni avval ham chiroyli bo'lgan mazmuniga ishora mavjud.

Rumour: Rumour is a pipe/blown by jealousies, conjectures, / And of so easy and so plain a stop/that the still – discordant wavering multitude (William Shakespeare, The Second Part of King Henry IV).


Ushbu misolda esa still-discordant birikmasi orqali presuppozitsiya hodisasi yuzaga chiqmoqda. Muallif shu orqali oldingi voqelikka ham bevosita ishora qiladi. Pragmatikada eng muhim jihatlardan biri denotatsiya va konnotatsiya munosabatidir. Dramatik diskursda denotativ yoki konnotativ ma'noning farqlanmasligi muallifdan rejissyor yoki aktyorgacha yetib borish jarayoni yoki tomoshabin va kitobxon e'tiboriga havola qilinganda asosiy g'oyani ilg'amaslikka

sabab bo‘lishi mumkin. Dramatik diskursda esa konnotatsiya metaforik birliklar orqali aniqroq namoyon bo‘ladi:

B a h r i. Qo‘ysangiz-chi, yo‘-o‘q, bo‘lmagan gap. Bitta artistkani bilaman. Terisini torttirganda bir ko‘zi qulog‘ining oldiga borib qolgan. Gajagi o‘sha surilgan ko‘zi ustidan osilib turadi. Yo‘-o‘q, Zumrad xola terisini torttirmagan. Asli toza xotin. Sira aynimaydi.

Aynimaslik sifati odatda oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qo‘llaniladi. Matn tarkibida esa konnotativ ma‘no anglatgan holda asli toza, qalbi pok yaxshi insonning “aynimasligi”ga ishora qilinadi.

Jahon dramaturgiyasida dramatik diskurs strukturasi borasida turli qarashlar mavjud. Ulardan eng mashhuri Fregreyt piramidasi nomi bilan mashhur.



1-rasm. Dramatik diskursning struktur qurilishi bo‘yicha Fregreyt piramidasi

Dramatik diskursning struktur xususiyatini ana shu piramida orqali ifodalash mumkin. Biroq Fregreyt 5 pardali dramalar hisobiga piramidani ayni shu tarzda ifodalaydi. Uch sahnali dramalarda esa piramida shaklan o‘zgarmaydi, biroq ta’kidlangan jihatlar uch pardaga sig‘diriladi. Shuningdek, dramatik diskursning semantikasidagi o‘zgarishlar ham strukturasi bilan bevosita bog‘liq. Boshlang‘ich nuqtada yuzaga kelgan nutqiy vaziyat voqealar kulminatsiyaga qadar o‘zgarib, murakkablashib boradi. Masalan, “Temir xotin” dramasida voqelik konflikt qism bilan boshlanadi.

QO‘CHQOR (uy tomonga): Ho‘, tirikmisan?.. (Tipirchilaydi.) Yechib qo‘y darrov, ho‘o‘!.. Qumri, deyapman, jahlim chiqsa nima bo‘lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo‘shat! (Biroz kutib.) Iye, bir balo bo‘lganmi bunga?.. Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo‘limni bo‘shatmasang...

Ichkaridan Qumri chiqadi. U o‘ttiz-o‘ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko‘rinadi.

QUMRI (arazli): Nima qilasiz?

QO‘CHQOR: Qo‘yvoraman!

QUMRI (xo‘rligi kelib): Nima?..

QO‘CHQOR: Pattangni qo‘lingga tutqazaman!

Konfliktning boshlanishi.

Qahramonlarning o‘zaro konflikti orqali nutqda ko‘tarilish ohangi mavjud. Qumrining ketishi, Olimjonning kelishi va Alomatni tanishtirishi konfliktning boshlanishini ifodalaydi. Bu Fregreyt uchburchagidagi 2-aktga to‘g‘ri keladi. Alomatga qizil mikrosxemaning o‘rnatilishi esa kulminatsiya qismini ifodalaydi. Boisi, ayni shu nuqtaga kelib, muallifning kommunikativ maqsadi yorqin ko‘rinadi. Kulminatsiyada qahramonlar nutqi tempidagi o‘shish, direktiv va assertiv (J.Searl ta‘biri bilan aytganda) yo‘nalishdagi nutq aktlari faollashadi. Diskursning boshqa janrlaridan farqli o‘laroq, dramatik diskurs muallif, qahramon va rol ijrochisi uchligida pragmatik mazmuni ifodalaydi. Ana shu uchlikda asosiy muammo va yechimning umumlashmasi masalaning nozik va jiddiyligini ko‘rsatadi. Shu boisdan dramatik diskursning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim. Ayniqsa, suppozitsiya, presuppozitsiya, implikatsiya singari hodisalar muallifdan ssenariy muallifi, rejissyor va aktyorgacha yetib kelgan oraliqda asosiy mazmuni saqlab qolish yoki qolmasligi tahlillar orqali aniqlanadi. Demak, dramatik diskurs muallif, rejissyor, rol ijrochisi uchligida voqelanadigan murakkab hodisa. Dramatik diskursning pragmatik xususiyatlari tahlilida har uchala omil e‘tiborga olinishi va asosiy kommunikativ maqsadni aniqlash zarur.

Tahlilga tortilgan dramalarda, asosan, presuppozitsiyaning bir necha ko‘rinishlari va metaforik mazmunda konnotatsiyaning salmog‘i yuqori ekanligini kuzatish mumkin.

Tadqiqot ishining **“Metaforalarni dramatik diskursda tekshirish zarurati”** deb nomlangan ikkinchi bobi metaforalarning dramatik diskursdagi mavqeyi, o‘zbek va ingliz dramatik diskursidagi metaforalarda gender semalarning tavsifi, o‘zbek va ingliz dramalaridagi metaforalarning ijtimoiy xoslanishi singari fasslardan iborat. Metaforaning kognitiv funksiyasi haqidagi tezisning ko‘rinishlaridan biri metafora qaror qabul qilish jarayoniga ta‘sir etadi degan taxmindir. Zamonaviy g‘oyalarga ko‘ra, qaror qabul qilish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) muammoli vaziyatdan xabardor bo‘lish;
- 2) muammoli vaziyatni hal qilishning muqobil variantlarini aniqlash;
- 3) muqobil variantlarni baholash;
- 4) muqobil variantni tanlash (haqiqiy qaror qabul qilish).

Metafora muayyan tarzda qaror qabul qilishning har qanday bosqichiga ta‘sir qilishi mumkin, biroq muammoli vaziyatni hal qilish uchun ko‘plab muqobil variantlarni shakllantirishda kuchliroq ahamiyatga ega. Chunki odam faqat ushbu metafora bilan mos keladigan va o‘zaro kommunikativ ta‘sirida ta‘kidlanadigan alternativ shakllarni ko‘radi: *tulki, ilon, tog‘day g‘urur, oyday go‘zal, cho‘lday qaqragan va hokazo.*

Metaforalar adabiyot, san‘at, poeziyada keng qo‘llangan va ularning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Keyinchalik esa metaforalarning lingvistik tabiatini o‘rganishga doir tadqiqotlar ham paydo bo‘ldi. Endi ularning turli kontekstlarda qo‘llanishi va buning asosiy omillari masalasini oydinlashtirish zarurati

pragmalingvistik tadqiqotlarda ham metaforaning roli muhim ekanini ko'rsatmoqda. Aytish joizki, metaforalarning nutqda qo'llanishigacha bo'lgan jarayonga sotsial, etnik, madaniy omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni G.Nasrullayeva quyidagicha tasniflaydi:

“Muloqot tizimida vujudga kelgan metaforada muloqotning o'zida bo'lgani kabi qator omillar ishtirok etadi:

- o'xshatiluvchi va o'xshovchi obyektlar;
- so'zlovchi va tinglovchi shaxs;
- muloqot vaziyati;
- muloqot muhiti;
- muloqot intensiyasi;
- zamon;
- makon...”³⁰

Dramatik diskursda qo'llangan metaforik komponentlarning konseptual va kontekstual semalari o'rtasida muayyan tafovut mavjud bo'ladi. Ingliz dramalaridan farqli o'laroq o'zbek dramalarida metaforalarning qo'llanilish chastotasi yuqori. Bu esa fikrni ifodalashdagi yana bir madaniy belgilardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi hollarda remarkalarda, aksariyat hollarda esa qahramonlar nutqida faol ishtirok etadi:

Weep I can not, / But my heart bleeds (Makbet) – O'zi aytmasayam qalbi yig'laydi dadamning (Kuyov).

For no man well of such a salve can speak, / That heals the wound, and cures not the disgrace, / Nor can thy shame give physic to my grief – F a r m o n (yelkasiga g'ildirak tashlab maykachan turgan Nigorani ko'rsatib). Shu sharmanda bilan til topishamanmi? Ahvolini qara!

Dramatik diskursda metaforalar denotativ va konnotativ funksiyani bajarishi bilan xoslanadi. Ushbu funksiya metaforalarning tor funksiyasidir. Bundan tashqari, kommunikativ maqsadni ifodalash, nutqiy vaziyatni jonlantirish, emotsional ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida qo'llanadi. Dramatik diskursda metaforalar tasvirlash obyektini to'g'ridan to'g'ri (direktiv yo'nalishda) yoki bilvosita (implikatsion tarzda) ifodalashi mumkin.

1) to'g'ridan to'g'ri: *ayyor tulki, eshakday qaysar, do'zax hayot*. Bu misollarda so'z – parametr va so'z – taxmin bir vaqtda sinonimiya va qiyoslashda (*ayyor tulki, eshakday qaysar, do'zax hayot*);

2) bilvosita: sharhlovchi qidiruv yo'nalishini belgilovchi tematik sohani ko'rsatish orqali: *Qudangiz – tulki* (odamlar orasida kim o'z xatti-harakati bilan tulkiga qiyoslanadi).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxsning barcha majoziy metaforik ismi jinsga bog'liq va jinsga bog'liq bo'lmagan metaforalar guruhiga bo'linadi:

1. Gender xoslanmagan metaforalar. Ushbu tipdagi metaforalar umumiy turga taalluqli bo'lib, nutqda turli kommunikativ maqsadni ifodalash uchun qo'llanadi.

2. Gender xoslangan metaforalar.

³⁰ G.Nasrullayeva. Antropomorfik metaforaning sotsiolingvistik xususiyatlari va leksikografik tadqiqi masalalari. 2019. 17-b.

O'zbek va ingliz dramatik diskursida maskulin metaforalar

O'zbek tilida	Ingliz tilida
Xarakter va xatti-harakatiga ko'ra	
Kuch-quvvati – Alpomishday jasur, qo'chqorday erkak, tog'ni ursa talqon qiladigan yigit, shamolday shiddatli, qoplonday yovqur, buqaday baquvvat	a snow leopard – a man who does not know fear, a real hero; a leopard – a brave, courageous man; a tiger – brave, fearless, courageous; a gun – a brave man; a falcon – an energetic iron guy;
g'azabi – g'azabi olov, qahri qattiq, qo'lida qamchi o'ynaydi	a lion – brave, bold, courageous; a wolf – unrestrained, majestic; a strong – willed, self – sufficient, self – improving man;
soddaligi – qo'y og'zidan cho'p olmagan	a dumb – donkey – a dumb man wimpy, spineless – sheep – a worthless man
liderlik, yetakchilik qobiliyati – oila ustuni, tog'day tayanch, sherdek	a head – bull – a man who is able to lead
salbiy jihati – latta, tepsa-tebranmas	a year – old male goat – unremarkable, ignorant, ignorant

O'zbek va ingliz dramatik diskursida feminin metaforalar

Salbiy jihat – toshyurak, bag'ritosh	A heart of stone, an iceberg – unkind, cruel
ijobiy jihat – samimiy, sofdil, tozayurak, qalbidaryo	an angel, an endless ocean, a heart of gold
moslashuvchanligi – kirishimli, qayshqoq, egiluvchi	a bluebird – a flexible girl,
ulug'lashi, takrorlanmasligi- tengsiz, olmos, yoqut	a brillant, a diamond, – the most precious, desirable woman
hissizlik – qo'g'irchoq, soxta	a doll, a rope to tie a horse to – dummy, numb
go'zaligi, chiroyi – guldek nozik, marvarid, jannat, quyosh	a shimmering jewel, a swan, a rose, a sunbeam, a golden glow, garden in bloom, a paradise, a beam of light in the darkness – beauty and attractiveness

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tahlil qilinayotgan metaforalar tarkibida jinsga oid belgilanmagan metaforalar ustunlik qiladi – 203 leksema, bu umumiy metafora tarkibining 81% ni tashkil etadi.

Metaforizatsiya inson tafakkurining tilsimotlaridan biridir. Metaforizatsiyaning shakllanish va amal qilish mexanizmida universallashuv ham, milliy xususiyat ham mavjud. Zero, "bir xil narsalarni har xil millat va xalq, odatda, har xil ko'radi, bir xil tovushni turlicha eshitadi, bir holatni turlicha his qiladi, tuyadi. Metaforalarni tasniflar ekan, tadqiqotchi A.Xo'jamqulov uning quyidagi turlarini farqlaydi:

1. Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, *oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa* kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi.

2. Zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a'zolari nomini ifodalagan leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi bo'lib, bu turga *bo'ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot* kabi leksemalarning metaforik ma'no hosil qilishi kiradi.

3. Fitomorfik metafora. Bu daraxt va o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma'nosining ko'chishi natijasida hosil bo'lgan metafora bo'lib, *g'uncha, gul, chinor, chaqirtikanak, danak* kabi leksemalarning metaforik ma'noda qo'llanishi bunga misol bo'ladi.

4. Kosmomorfik metafora. Osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metafora. Bunday metafora *oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur, shu'la* kabi leksemalar ma'nosini metaforik usul bilan ko'chirish natijasida hosil bo'ladi.

5. Abiomorfik metafora. Metaforaning bu turiga yuqorida sanab o'tilgan turlariga kirmaydigan, tabiatdagi jonsiz narsalarni ifodalovchi leksemalar ma'nosining metaforik ko'chishidan hosil bo'lgan metaforalar (temir, tosh, kishan) kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan metaforalar orasida dramatik diskursda qo'llanish chastotasiga ko'ra antropomorfik metaforalar yetakchilik qiladi.

Shuningdek, ingliz dramatik diskursida o'ziga xos hayvon, o'simlik nomlari bilan bog'liq metaforalarni ham ko'plab uchratish mumkin.

3-jadval

Ingliz dramatik diskursida hayvon, gul va oziq-ovqatlarning konnotativ ma'nosi

Asos	Hayvon	Konnotativ ma'no
Animal's appearance	Bunny	Beautiful and lovely girl
	Bat	Ugly woman
	Bird	Beautiful girl
Plant / food appearance	Lilies	A girl who has beautiful appearance
	Rose	Beautiful and lovely girl
	Cherry	A girl who is pure

Metaforik tafakkur boshqa fikrlash usullaridan ustun turadi. Chunki u bilish obyektining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi. U orqali tasvirlanayotgan nasa, voqea-hodisalar mohiyatini obrazli tarzda ifodalash va metaforik obyektlarning xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Boisi, metafora inson tafakkur mahsulining betakror namunalaridan biri hisoblanadi.

Metaforalarni gender xoslanishiga ko'ra farqlash zamonaviy tilshunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Gender metaforalarda xususiy baholash quyidagilarga bo'linadi:

- 1) hissiy-ta'm yoki gedonistik (yoqimli – yoqimsiz);
- 2) psixologik: a) intellektual (qisqa fikrli, savodsiz); b) hissiy (quvonchli, jo'shqin, yoqimli);
- 3) estetik (chiroyli – xunuk);
- 4) axloqiy (axloqli – axloqsiz, yaxshi – yomon, mehribon – shafqatsiz);
- 5) manfaatli (foydali – zararli);
- 6) me'yoriy (sog'lom – kasal);
- 7) teleologik (tegishli – nomaqbul) baho³¹.

³¹ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 896.

Tilshunoslikda metaforalarning sotsial xoslanishi masalasiga deyarli e'tibor qaratilmagan. Aslida ham metaforalarda sotsial xoslanish mumkinmi va u qanday amalga oshiriladi degan o'rinli savol tug'ilishi tabiiy. Biz yuqorida metaforalarning olimlar tomonidan ajratilgan bir nechta tasnifini keltirdik. Metaforalarning muayyan darajada xoslanish omillarini hisobga olgan holda ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Gender xoslangan	Sotsial xoslangan	Etnik xoslangan
<ul style="list-style-type: none"> • Femininlik va maskulinlik xususiyatiga ega bo'lgan metaforalar • Masalan: <i>sheryurak</i> – erkaklarga nisbatan • <i>ohuko'z</i> – ayollarga jisbatan 	<ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga doir, ular nutqida qo'llaniluvchi yoki ularga nisbatan ishlatiluvchi metaforalar • <i>qassob</i> – jarrohlarga nisbatan 	<ul style="list-style-type: none"> • Muayyan etnik qatlam, millat – elat madaniy qatlamga oid bo'lgan ayni shu millat mentalitetini o'zida aks ettiruvchi metaforalar • <i>qora xalq</i> – mahalliy aholi • bolajon xalq

2-rasm. Metaforalarning xoslangan guruhlari


Tadqiqotimiz avvalida gender xoslangan metaforalar va ularning dramatik diskursdagi mavqeyi masalasiga biroz to'xtaldik. Metaforalarning sotsial tabiati masalasi esa gender xoslanishdan keng qamrovli til hodisasi sanaladi. Jamiyat rivojlanib borishi bilan tilda ham muayyan o'zgarishlar yuzaga keladi. Millatning o'y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari doirasida turli metaforalar, badiiy tasvir vositalari paydo bo'ladi. Til va ijtimoiy munosabat murakkab va serqirra bo'lib, uni tadqiq qilishda alohida yondashuv zarur.

Muallifning hajm jihatidan kichik, stilistik jihatdan siqiq gapi “kichik janrdagi matnlar” deb ataladigan guruhni tashkil qiladi. Semantik tahlil til birligining ma'nosini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu ishda aforizmlarning semantik xususiyatlarini o'rganish ularning so'z boyligi va umumiy ma'nosini tahlil qilishni hisobga olgan holda quriladi. Amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni taqdim etish va uzatish shakli bo'lgan hamda pragmatik mazmunga ega aforizm tili bir qator leksik va semantik xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Ishning uchinchi bobi “**Dramatik diskursda voqelangan metaforalarning lingvomadaniy xususiyati**” deb nomlanadi. Ushbu bob uch fasldan iborat bo'lib, unda o'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi, o'zbek dramalarida kommunikativ-pragmatik xoslangan metaforalarning diskursiv xususiyatlari, ingliz dramalarida kommunikativ-pragmatik xoslangan metaforalarning diskursiv talqini masalalari ko'rib chiqilgan.

Metafora tilda xalq hayotining in'ikosi o'laroq voqelanadi. Demak, unda xalqning etnik xosligini ifodalovchi muayyan belgilar mavjud bo'ladi.

Qiyoslanayotgan tillarda umumiy va individual metaforik komponentlarni kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda metaforalarni lingvomadaniy aspektga ko‘ra ikki yirik guruhga ajratish lozim:



3-rasm. Dramatik diskursda metaforalarning lingvomadaniy tasnifi

Yuqorida ta’kidlangan fikrlarni dalillash maqsadida quyidagi metaforalarni misol qilib keltirish mumkin:

Ikki tilda ham faol qo‘llanadigan umumetnik metaforalar:

1. *He’s bitten the dust* – yer tishladi.
2. *I’m up to my eyes/ears in work* – ishim boshimdan oshib yotibdi.
3. *To play with fire* – o‘t bilan o‘ynashmoq.
4. *Redhanded* – qo‘li qonga belangan.
5. *Last line of the book* – hayot kitobining so‘nggi sahifasi / hayotining so‘nggi sahifasi.
6. *Death is an eternal sleep* – abadiy uyqu, mangu uyqu.
7. *A goodly apple rotten at the heart* – chirigan qalb.
8. *A glove disguising smb hand* – yuzni yashiruvchi niqob, yuzdagi niqob.
9. *Stony heart* – toshqalb, bag‘ritosh.
10. *Tiger’s heart* – sheryurak.
11. *Right hand* – o‘ng qo‘l (ishonchli odam).
12. *Like apig* – cho‘chqaday.
13. *They will take root with their spirit* – ildiz otmoq.
14. *Sweet dreams* – shirin orzular.
15. *Along the burning path of life’s* – olovli yo‘l.

Xususan, dramatik diskursda voqelangan umumiy metaforalar sirasida quyidagilarni ta’kidlash o‘rinli:

He who deserves to drink from the ocean of life deserves to fill his cup from your little stream (Look back anger) – *Bu hayot ummonida so‘qqabosh bo‘lib suzib o‘tolmaydi-ku axir* (Kuyov).

